XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 31-oktabr VII-36-94-2-0-K/26 Buxoro viloyati

Kogon shahar hududidagi yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qoʻyish tashabbusini dastlabki tarzda koʻrib chiqish hamda jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni qoplash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-iyuldagi “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida “Oʻrta shaharlarni kompleks rivojlantirish” loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4409-sonli qaroriga asosan, Kogon shahridagi “Amir saroyi” madaniy meros obyektini taʼmirlash va jamoat joylarini yaxshilash boʻyicha qurilish-taʼmirlash ishlari olib borilmoqda.

Amalga oshiriladigan mazkur qurilish-taʼmirlash ishlari natijasida ushbu hududdagi mulkdorlarga tegishli yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qoʻyishga zarurat sezilmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 8-sentabrdagi “Buxoro viloyatidagi ayrim obyektlarni loyihalashtirish, qurilish-montaj, jihozlash va obodonlashtirish ishlari hamda moliyalashtirish masalalarini jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 477-sonli qarorida xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, Kogon shahridagi “Amir saroyi” madaniy meros obyektini rekonstruksiya qilish va uning atrofida joylashgan ayrim koʻchmas mulk obyektlarini xatlovdan oʻtkazib, belgilangan tartibda kompensatsiya toʻlovlarini amalga oshirish choralarini koʻrish belgilangan.

Viloyat hokimligi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish boʻyicha hududiy maqsadli jamgʻarma” kuzatuv kengashining 2026-yil 27-oktabrdagi 11-son yigʻilish bayoni bilan Kogon shahridagi “Amir saroyi” madaniy meros obyektini taʼmirlash loyihasi

bo‘yicha asoslantiruvchi materiallar hamda dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra talab etiladigan kompensatsiya miqdori jamg‘arma Kuzatuv kengashi tomonidan ma’qullangan.

Shuningdek, viloyat hokimligi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga etkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha hududiy maqsadli jamg‘arma” Kuzatuv kengashining 2026-yil 23-oktabrdagi 10-sonli yig‘ilish bayoniga asosan tegishli sud qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida 15 nafar yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni qoplash uchun markazlashgan jamg‘arma mablag‘lari hisobidan jami 2940,6 mln.so‘m miqdoridagi kompensatsiya to‘lovlarini belgilangan tartibda amalga oshirish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 24-moddalari, “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni 17-moddasi, Kogon shahar hokimligining 2026-yil 23-oktabrdagi 01/03-10-15/3364-sonli xati, viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2026-yil 24-oktabrdagi 03/38/1547-sonli xati, viloyat hokimligi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha hududiy maqsadli jamg‘arma” Kuzatuv Kengashining 2026-yil 23-oktabrdagi 10-sonli hamda 2026-yil 27-oktabrdagi 11-son yig‘ilish bayonlariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kogon shahar hokimi M.To‘raboyevning Kogon shahridagi “Amir saroyi” madaniy meros obyektini ta’mirlash loyihasi yuzasidan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-iyuldagi “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida “O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish” loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4409-sonli qaroriga asosan, Kogon shahridagi “Amir saroyi” madaniy meros obyektini ta’mirlash loyihasi amalga oshirilayotganligi;

viloyat hokimligi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha hududiy maqsadli jamg‘arma” kuzatuv kengashining 2026-yil 27-oktabrdagi 11-son yig‘ilish bayoniga muvofiq Kogon shahridagi “Amir saroyi” madaniy meros obyektini ta’mirlash loyihasi bo‘yicha asoslantiruvchi materiallar hamda dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra talab

etiladigan kompensatsiya miqdori jamg‘arma Kuzatuv kengashi tomonidan ma’qullanganligi inobatga olinsin.

3. Kogon shahar hokimligining “Temiryo‘lchi” va “Bunyodkor” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududidagi yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish bo‘yicha ochiq muhokamasini o‘tkazish to‘g‘risidagi tashabbusi ma’qullansin hamda huquq egalari bilan ochiq muhokama o‘tkazilishiga ruxsat berilsin.

4. Kogon shahar hokimligi (M.To‘raboyev)ga:

O‘zbekiston Respublikasining “Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish bo‘yicha ochiq muhokama o‘tkazish to‘g‘risida hokimlikning rasmiy veb-sayti va boshqa ommaviy axborot vositalarida, shuningdek ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida to‘liq hajmda e’lon qilinishini;

huquq egalariga ochiq muhokamani o‘tkazish vaqti va joyi ko‘rsatilgan holdagi xabarnoma yuborilishini;

ochiq muhokama yakunlari bo‘yicha belgilangan tartibda bayonnoma tuzilishini, bayonnoma tegishli hokimlikning vakili va ochiq muhokamada ishtirok etgan barcha huquq egalari (uning vakillari) tomonidan imzolanishini;

ochiq muhokama yakunlari bo‘yicha belgilangan tartibda tuzilgan bayonnoma hamda boshqa tegishli hujjatlarni xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etilishini ta’minlash topshirilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi 1047-son qaroriga asosan viloyat hokimligi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga etkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha hududiy maqsadli jamg‘arma” Kuzatuv kengashining 2026-yil 23-oktabrdagi 10-sonli yig‘ilish bayoniga asosan 15 nafar yuridik va jismoniy shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni qoplash maqsadida 1-ilovaga muvofiq markazlashgan jamg‘arma hisobidan jami 2940656,6 ming so‘m miqdoridagi mablag‘larni yo‘naltirishga rozilik berilsin

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

Kengashi raisi **ASHUROV JAMOL RAJABBOYEVICH**

Xalq deputatlari Buxoro viloyati
Kengashining
2026-yil 31-oktabrdagi
VII-36-94-2-0-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Viloyat hokimligi huzuridagi “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish boʻyicha hududiy maqsadli jamgʻarma” hisobidan toʻlanadigan kompensatsiya toʻlovlari

№	№	Mulkdor nomi	Obyekt nomi	Qurilish maydoni	Mulkdorning moddiy zarar summasi (ming soʻm)	Mablagʻ ajratishga asos
1.	1.	Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaasiga koʻmaklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti	Noturar bino	2 600,0	1 140 034,3	Toshkent viloyati sudi iqtisodiy ishlari boʻyicha Sudlov Hayʼati kassatsiya instansiyasining 11.08.2026-yildagi 4-2001-2502/9076-son qarori
Jami				**2 600,0**	**1 140 034,3**	
2.	1.	Komilov Ismoil Aminovich	Savdo doʻkoni	50,0	71 784,7	FIB Buxoro tumanlararo sudining 14.08.2026-yildagi 2-2001-2501/26418-son qarori
3.	2.	Raxmonova Dilbar Muxammedovna	Savdo doʻkoni	15,0	23 648,5	FIB Buxoro tumanlararo sudining 01.04.2026-yildagi 2-2001-2605/2492-son qarori
4.	3.	Shomurodov Farxod Rustamovich	Savdo doʻkoni	15,0	47 297,1	FIB Buxoro tumanlararo sudining 10.04.2026-yildagi 2-2001-2606/2493-son qarori
Buxoro shahar jami				**80,0**	**142 730,3**	
5.	1.	Xaydarova Mahbuba Askarovna	Savdo doʻkoni	48,0	120 273,0	Buxoro viloyati sudi fuqarolik ishlari boʻyicha Sudlov Hayʼati kassatsiya instansiyasining 23.04.2026-y. ajrimi (30.10.2025-yildagi 2-2002-2501/3380-son qarori)
6.	2.	Tursunova Dilfuza	Savdo doʻkoni	39,4	140 397,0	FIB Kogon tumanlararo sudining 23.01.2026-yildagi qarori
7.	3.	Egamurotov Murtazoqul	Savdo doʻkoni	19,7	83 250,0	FIB Kogon tumanlararo sudining 13.05.2026-yildagi qarori
Kogon shahar jami				**107,1**	**343 920,0**	
8.	1.	Qadirov Alijon Sharobboyevich	Savdo doʻkoni	23,2	58 387,4	FIB Qorakoʻl tumanlararo sudining 10.03.2026-yildagi 2-2004-2601/707-son qarori
9.	2.	Hamroyev Qurbon Hamdamovich	Savdo doʻkoni	225,0	424 742,0	Buxoro viloyati sudi fuqarolik ishlari boʻyicha Sudlov Hayʼati kassatsiya instansiyasining ajrimi

						(asosiy ish 02.06.2026-yildagi 2-2004-2502/10525-son qarori)
Olot tumani jami				**248,2**	**483 129,3**	
10.	1.	Jumayev Hamro Abdullayevich	Savdo do‘koni	68,0	165 606,4	FIB G‘ijduvon tumanlararo sudining 12.06.2026-yildagi 2-2003-2602/6238-son qarori
11.	2.	Shafiyev Ulug‘bek To‘xtayevich	Savdo do‘koni	117,0	359 988,5	FIB G‘ijduvon tumanlararo sudining 27.10.2025-yildagi 2-2003-2401/896-son qarori
12.	3.	Baxronov Baxtiyor Obloqulovich	Savdo do‘koni	32,0	57 791,9	FIB G‘ijduvon tumanlararo sudining 22.07.2024-yildagi 2-2003-2403/1550-son qarori
13.	4.	Shamsiddinov Shukrullo	Savdo do‘koni	105,0	90 095,7	FIB G‘ijduvon tumanlararo sudining 29.10.2025-yildagi 2-2003-2501/8762-son qarori
14.	5.	Odinayev Ibrohim Holiq o‘g‘li	Savdo do‘koni	43,2	105 091,3	FIB G‘ijduvon tumanlararo sudining 11.12.2023-yildagi 2-2003-2303/3647-son qarori
15.	6.	Sattorov Sardor	Savdo do‘koni	24,0	52 269,0	FIB Kogon tumanlararo sudining 11.07.2025-yildagi 2-2003-2402/10914-son qarori
G‘ijduvon tumani jami				**389,2**	**830 842,7**	
HAMMASI				**3 424,5**	**2 940 656,6**	